

JOURNAL OF ART, CULTURE AND MEDIA STUDIES

VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

The development of media literacy in countries around the world

Zayniddinova Shakhina Zakriddinovna

Bukhara State University, Department of History

Annotation: This article is dedicated to studying the development of media literacy in different countries and its significance in society. The experiences of South Korea, Germany, and the USA are analyzed, highlighting the relationship between media and business, freedom of speech, and the role of a democratic environment. In the case of Uzbekistan, the role of the President's Virtual and Public Reception Offices in addressing citizens' issues and promoting media literacy is examined. In Russia, the "National Technology Initiative" and end-to-end digital technologies emerge as important tools for developing the media and information environment. The article demonstrates the importance of media literacy in accessing information, critical thinking, and active social participation of citizens.

Keywords: Media literacy, information culture, MIL (Media and Information Literacy), mass media (OAV), democratic society, freedom of speech, digital technologies, end-to-end technologies, artificial intelligence, Russia, Uzbekistan, South Korea, Germany, USA, Samsung, Apple, The Spiegel, Freedom House, virtual reception offices, public engagement, social communication, information security, history of media literacy, journalism ethics, social networks, UNESCO, KTRK, Capital TV.

Dunyo mamlakatlarida media savodxonlik taraqqiyoti

Zayniddinova Shaxina Zahriddinovna

Buxoro Davlat Universiteti tarix yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqola dunyo mamlakatlarida media savodxonlikning rivojlanishi va jamiyatdagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Janubiy Koreya, Germaniya va AQSh tajribasi tahlil qilinib, media va biznes munosabatlari, so'z erkinligi va demokratik muhitning roli ko'rsatildi. O'zbekiston misolida Prezidentning Virtual va



JOURNAL OF ART, CULTURE AND MEDIA STUDIES

VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

Xalq qabulxonalarini orqali aholining muammolarini hal qilish va media savodxonlikni oshirishdagi roli yoritilgan. Rossiyada esa “Milliy texnologiya tashabbusi” va “end-to-end” raqamli texnologiyalar media va axborot makonini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Maqola media savodxonlikning axborot olish, tanqidiy fikrlash va fuqarolarning ijtimoiy faol ishtirokidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Media savodxonlik, axborot madaniyati, MIL (Media and Information Literacy), OAV (ommaviy axborot vositalari), demokratik jamiyat, so‘z erkinligi, raqamli texnologiyalar, end-to-end texnologiyalar, sun‘iy intellekt, Rossiya, O‘zbekiston, Janubiy Koreya, Germaniya, AQSh, Samsung, Apple, The Spiegel, Freedom House, virtual qabulxonalar, xalq bilan muloqot, ijtimoiy kommunikatsiya, axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik tarixi, jurnalistika etikasi, ijtimoiy tarmoqlar, UNESCO, KTRK, Capital TV.

Kirish

XXI asr axborotlashgan jamiyat shakllanishi bilan xarakterlanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet tarmog‘ining ommalashuvi hamda ommaviy axborot vositalarining kengayishi natijasida insoniyat hayotida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda axborot ishlab chiqarish, uni tarqatish va iste‘mol qilish jarayoni global tus oldi. Bunday sharoitda shaxsning axborot oqimida mustaqil yo‘l topa olishi, ma‘lumotlarni tanqidiy tahlil qilishi va ulardan ongli ravishda foydalanishi muhim ijtimoiy zaruratga aylandi.

Media savodxonlik zamonaviy axborot jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllanmoqda. U shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan ma‘lumotlarni anglash, baholash, tahlil qilish hamda mas‘uliyatli ravishda media mahsulot yaratish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Media savodxonlik nafaqat texnik bilimlar, balki tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, huquqiy madaniyat va ma‘naviy mas‘uliyat bilan ham uzviy bog‘liqdir.



JOURNAL OF ART, CULTURE AND MEDIA STUDIES

VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

So‘nggi yillarda xalqaro miqyosda media savodxonlikni rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan Media and Information Literacy (MIL) konsepsiyasi dunyo mamlakatlarida media ta‘limni tizimli ravishda joriy etish zaruratini asoslab berdi. Natijada ko‘plab davlatlarda media savodxonlik ta‘lim siyosatining muhim yo‘nalishiga aylandi.

Dunyo mamlakatlarida media savodxonlik taraqqiyoti turli tarixiy, siyosiy va ijtimoiy sharoitlarda shakllangan bo‘lib, har bir davlat o‘ziga xos model va tajribani ishlab chiqqan. Raqamli transformatsiya jarayonlari, ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi hamda axborot tahdidlarining kuchayishi esa bu sohani yanada rivojlantirishni talab etmoqda.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, dunyo mamlakatlarida media savodxonlikning rivojlanish jarayonini tahlil qilish global axborot makonidagi tendensiyalarni chuqur anglash imkonini beradi.

Asosiy qism. Media va axborot savodxonligi XXI asrda insonning atrof-muhitini tushunishi va unga ongli ravishda munosabat bildirishiga yordam beruvchi turli ko‘nikmalar majmuini anglatadi. Media va axborot savodxonligi ommaviy axborot vositalari, kutubxonalar, arxivlar va Internet kabi boshqa axborot manbalarining shaxsiy hayotimiz va demokratik jamiyat hayotidagi roli va vazifalari bilan uzviy bog‘liqdir.

U insonning kommunikatsiya qilish, fikrini erkin ifoda etish, g‘oya va axborotni izlash, qabul qilish hamda ular bilan almashish borasidagi huquqlarini amalga oshirishga yordam beradi. Shuningdek, media va axborot savodxonligi shaxsga media va boshqa axborot yetkazuvchilar nima ishlab chiqayotganini va qanday xabarlarni tarqatayotganini tahlil qilish, mavjud ma‘lumotlar asosida ularni baholash hamda o‘z auditoriya sifatida rolini anglash imkonini beradi.

Media va axborot savodxonligini baholash usuli va mezonlari zamonaviy ijtimoiy va pedagogik tadqiqotlar obyekti bo‘lib kelmoqda. Masalan, 2010 yilda Yevropa



JOURNAL OF ART, CULTURE AND MEDIA STUDIES

VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

Komissiyasi audiovizual media xizmatlari va media savodxonlikning rivojlanishi bo'yicha Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlarining vazifalarini belgilovchi direktiva chiqardi. 2011 yilda Finlyandiyada o'tkazilgan milliy tadqiqot shuni ko'rsatdiki, media savodxonlik ko'nikmalarini sinf mashg'ulotlari va boshqa ta'lim jarayonlarida olgan o'quvchilar, bunday tajribaga ega bo'lmagan o'quvchilarga nisbatan, media orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiyalarga ijobiy munosabatda bo'lishadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ilg'or davlatlar, xususan Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSh), Germaniya, Yaponiya va Fransiya, media savodxonlik va axborot kompetentsiyasini shakllantirishni davlatning birinchi darajali vazifasi sifatida belgilagan. Ushbu mamlakatlar o'z intellektual kadrlarini tayyorlash orqali mudofaa, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va madaniy sohalarda katta yutuqlarga erishgan. Ular ta'lim tizimida media savodxonlikni nafaqat axborot olish va uzatish ko'nikmasi sifatida, balki kasbiy, metodik va madaniy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalar majmuasi sifatida shakllantiradi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ishlash va ularni ongli ravishda qo'llash qobiliyati majburiy kompetentsiya sifatida ta'lim dasturlariga kiritilgan.

Natijada yoshlar media mahsulotlarni tanqidiy tahlil qilish, axborotning ishonchliligini baholash va uni ongli ravishda ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa global axborot makonida raqobatbardosh, mas'uliyatli va ijtimoiy faollikka tayyor shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, media savodxonlikning rivojlanishi jamiyatning demokratik taraqqiyoti, axborot xavfsizligi va yoshlarning mafkuraviy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bois ko'plab mamlakatlarda media ta'lim maktab va oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilinib, yosh avlodning axborotni ongli ravishda qabul qilishi va tanqidiy tahlil qilishi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Dunyo mamlakatlarida media savodxonlik taraqqiyoti ko'p jihatdan ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy mustaqilligi va jamiyatdagi



JOURNAL OF ART, CULTURE AND MEDIA STUDIES

VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

demokratiya darajasiga bog‘liq. Janubiy Koreyada eng yirik reklama beruvchi kompaniya Samsung hisoblanadi. Jurnalist Subin Kim Qirg‘izistonning KTRK telekanalidagi “Capital” dasturiga bergan intervyusida ta’kidlashicha, Janubiy Koreyada deyarli hech bir OAV Samsung reklamasisiz faoliyatini davom ettira olmaydi. Kompaniya har yili reklama uchun qariyb 2 milliard dollar sarflaydi. Agar Samsung obro‘sga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan ma’lumot paydo bo‘lsa, mamlakat OAVlari buni ko‘pincha yoritmaydi, chunki kompaniya reklama shartnomasini bekor qilishi mumkin. Bu holat OAVning iqtisodiy jihatdan yirik biznesga qaramligi axborot erkinligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini namoyon etadi.

Yana bir misol so‘z erkinligi davlatdagi demokratlashuv darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Germaniyadagi mashhur “The Spiegel” nashri bosh muharririning aytishicha, ularning OAVi katta daromadni Apple kompaniyasi bilan tuzilgan reklama shartnomasidan oladi. Shunga qaramay, nashr Apple’ning Xitoydagi zavodlarida mehnat sharoitlari haqida tanqidiy maqola chop etgan. Bu esa demokratik jamiyatda OAV iqtisodiy manfaatlardan qat’i nazar, jamoatchilik manfaatini ustuvor qo‘yishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Freedom House tashkilotining 2015-yilgi reytingiga ko‘ra, Janubiy Koreya 33 ball bilan “qisman erkin” davlat sifatida baholangan. Germaniya 18 ball bilan so‘z erkinligi mavjud bo‘lgan mamlakat deb tan olingan. Qirg‘iziston esa 67 ball bilan “erkin bo‘lmagan matbuot” maqomiga ega bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichlar turli mamlakatlarda OAV erkinligi va demokratiya darajasi o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Bugungi kunda media savodxonlik “jamiyatning har bir a’zosi uchun shaxsiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishning asosiy kompetensiyalaridan biri” sifatida qaraladi. Shu bilan birga, u muvaffaqiyatli professional va kundalik faoliyat, hamda axborot jamiyatida shaxsning ijtimoiy xavfsizligi uchun eng muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, ma’lum bir tahririyat yoki media jamoasiga yangi xodimlarni jalb qilish



JOURNAL OF ART, CULTURE AND MEDIA STUDIES

VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

jarayonida, ularning media savodxonligi darajasi va ushbu sohadagi tushunchalarini aniqlash muhimdir. Bu maqsadda intervyu yoki so‘rovnoma savollariga media savodxonlik bilan bog‘liq jihatlar kiradi.

Media savodxonlik, shuningdek, foydalanuvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish va ommaviy axborot vositalari uchun sifatli kontent tayyorlash jarayonining ajralmas qismidir. Shu bois, yollash jarayonida ushbu jihatni hisobga olish va uni tahririyat siyosatiga integratsiya qilish yangi xodimlarning malakali ish faoliyatini ta‘minlash, ijodiy jamoaning samaradorligini oshirish va media mahsulotlarning sifatini yuqori darajada ushlab turishga xizmat qiladi. Masalan, mamlakatimizda ham media savodxonlikka alohida e‘tibor qaratilmoqda. 2017-yilda O‘zbekiston “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili” deb e‘lon qilindi. Bu tashabbusning asosiy maqsadi — xalq hokimiyatini faqat nomida emas, amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlashdir. Ishonchimiz komilki, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak, nafaqat xalq davlat organlariga qaram bo‘lishi. Shu doirada mamlakatimizning barcha hududlarida Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi. Hozirgi kunga qadar bir milliondan ortiq fuqarolar ushbu qabulxonalar orqali o‘zlarining dolzarb muammolarini hal qildi. Bu jarayon OAV va media savodxonligi rivoji bilan chambarchas bog‘liq. OAV fuqarolarga davlat organlari faoliyati, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar haqida axborot yetkazadi, aholining faol ishtirokini ta‘minlaydi. Iqtisodiyot tizimini liberallashtirish va qulay investitsiya muhitini yaratish kabi o‘zgarishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka yetkazish esa media savodxonlikning ahamiyatini yanada oshiradi.

Xulosa. Dunyo mamlakatlarida media savodxonlikning rivojlanishi jamiyatning har bir a‘zosiga axborotni tanlab olish, tahlil qilish va ongli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Turli davlatlarda media va axborot madaniyati nafaqat fuqarolarning ijtimoiy va siyosiy faoliyatini rag‘batlantiradi, balki demokratik qadriyatlarni mustahkamlash,



JOURNAL OF ART, CULTURE AND MEDIA STUDIES

VOLUME-1, ISSUE-3, 2026

iqtisodiy va texnologik taraqqiyotga hissa qo'shish uchun muhim vosita sifatida shakllanmoqda. Shu bois, media savodxonlikni rivojlantirish har bir mamlakat uchun strategik ahamiyat kasb etadi va jamiyatdagi axborot madaniyatini oshirish, fuqarolarning ongli ishtirokini ta'minlash hamda innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash bilan chambarchas bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Муратова Н., Гризл Э., Мирзахмедова Д. Медиа- и информационная грамотность в журналистике [Текст]. Ташкент: Baktria Press, 2019. 112 с.; Авторы: Иманкулов М., Усупбаева А., Текимбаева А., Данилова Н., Штурхетский С., Кожобекова Б.; Дизайн и верстка: Жетигенов Ч.
2. Медиа и информационная грамотность: Ресурсная книга для учителя. М 42, 2018. 3000. ISBN 978-9967-11-656-6.
3. Kuvandikov Z.O., Axatov A.R. (mas'ul muharrir). Sun'iy intellektni huquqiy tartibga solish: ma'ruzalar kursi [Rus tilidan tarjima]. Samarqand: Samarqand davlat universiteti, 2022. 179 bet.
4. Ro'ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati: Oliy o'quv yurtlarining barcha yo'nalishlari talabalari uchun darslik. T.: O'zbekiston, 2024. 260 bet.
5. Медиа ва ахборот саводхонлигини шакллантиришнинг педагогик жиҳатлари: Укув-амалий қўлланма. Т.: Extremum-press, 2017. 142 б.
6. Media Education and Digital Literacy. MDPI Books, 2020. ISBN: 978-3039437581; Editor team: MDPI Books.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. Official speech at the 72nd Session of the UN General Assembly, New York, 19 September 2017. Online: <https://share.google/HnFfh9TLNQrtkfYym>

